FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA SHAHAR HOKIMINING QARORI

2024 - yil 16 - yanvar 14-11-169-Q/24 Farg‘ona shahar hokimligi

Farg‘ona shahar Yangi asr ko‘chasida joylashgan avtomobil yo‘lining bir qismida transport harakatini cheklash to‘g‘risida

Farg‘ona shahar Yangi asr ko‘chasi 100^{B}-uyda joylashgan ko‘p tarmoqli tibbiyot markaziga olib boruvchi avtomobil yo‘lida transport harakati xavfziligini ta’minlash, tez tibbiy yordam transport vositalari tomonidan bemorlarni tibbiyot markaziga olib kirish uchun qulay sharoitlar yaratish hamda ularga o‘z vaqtida tibbiy yordam ko‘rsatilishini ta’minlash maqsadida, Farg‘ona viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining 2023-yil 4-dekabrdagi 01-05/317-son hamda Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2023-yil 14-dekabrdagi 33/1546-son murojaatlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Farg‘ona viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining 2023-yil 4-dekabr kungi 01-05/317-son murojaat xati inobatga olinsin.

2. Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Mirzaev) hamda Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (R.Dexqonov)ga:

Farg‘ona viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markaziga olib kiruvchi avtomobil yo‘lida tez tibbiy yordam transportlari harakati xavfsizligini ta’minlash va qulay sharoit yaratish maqsadida Farg‘ona shahar Yangi asr ko‘chasi chorrahasidan (41-son davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti) transport vositalarining harakati

cheklansin;

yo‘lning yopilgan qismida avtotransport vositalarini vaqtincha to‘xtab turish joylari va muqobil yo‘nalishlar tashkil etish vazifalari topshirilsin.

3. Mazkur qaror qabul qilish munosabati bilan Farg‘ona shahar hokimining 2023-yil 322-11-169-F/23-sonli farmoyishi bekor qilinsin.

4. Farg‘ona shahar hokimligi Axborot xizmati (F.Qodirov) ushbu qaror bilan avtomobillar harakati cheklanayotgan ko‘chalar haqida ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur farmoyish bajarilishini nazorat qilish Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i A.Mirzayev zimmasiga yuklansin.

Farg'ona shahar hokimi **V.Nazarov**